

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Raimjanova Madina Asrarovna
Toshkent Moliya instituti dotsenti

Annotasiya: Maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan pandemiyadan so'ng xalqaro turizm tiklanishi yuzasidan ishlab chiqilgan ssenariysi keltirilgan, 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi maqsadli ko'rsatkichlari keltirilgan, 2018-2022-yillarda tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar soni tahlil qilingan, O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. YAIM, Butunjahon turizm tashkiloti UNWTO, pandemiya, investitsiya.

MAIN DIRECTIONS TO'INCREASE THE ATTITUDE OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN OUR COUNTRY

Raimjanova Madina Asrarovna
associate professor of Tashkent Institute of Finance

Annotation: The article examines the opinions of the world's leading scientists on the current issues of tourism development in Uzbekistan, presents the scenario developed by the World Tourism Organization (UNWTO) regarding the recovery of international tourism after the pandemic, the concept of tourism development in the Republic of Uzbekistan in 2019-2025. indicators are given, the number of foreign tourists who visited in 2018-2022 is analyzed, justified conclusions and proposals are developed on the development of the tourism industry in Uzbekistan, and recommendations for implementation in our country are given.

Keywords: YAIM, World Tourism Organization UNWTO, pandemic, investment.

1. Kirish

Jahonda turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari bilan bir qatorda ijtimoiy sohalarda xalqaro aloqalarning kengayib borishi va maqsadli turizm xizmatlariga bo'lgan talabning jadal sur'atlar bilan ortib borishi sharoitida tarixiy-madaniy turizm xizmatlarini ustuvor darajada rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xalqaro turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra «dunyo YAIMning 11 foizi turizm sohasiga to'g'ri keladi»¹. Bugungi kunda jahonda tarixiy-madaniy turistik salohiyatidan samarali foydalanish, ichki va tashqi turizmni koronavirus pandemiyasi tarqalishidan oldingi davr darajasiga olib chiqqan holda jadal rivojlantirish, turbiznesni qo'llab-quvvatlash dolzarb

¹ <https://www.unwto.org/> ma'lumotlari

muammolardan bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida tashqi va ichki turizmni strategik tarmoqlardan biri sifatida jadal rivojlantirish, turizm turlarini diversifikatsiya qilish, mavjud tarixiy-madaniy ob'ektlarning salohiyatidan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. «... Turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning etakchi kuchiga aylanishi lozim bo'lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish» 2 o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari bir etib belgilangan. Bu borada tarixiy-turistik ob'ektlar salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishda ichki imkoniyatlarni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb etish, mehmonxonalar tarmog'ini ichki imkoniyatlar hisobidan kengaytirish, elektron onlayn-auksionlarni ustuvor tashkil qilish, tarixiy-madaniy turistik salohiyat samaradorligi tarkibida tarixiy buyumlarning turistik mahsulot sifatida jalb etish kabi yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish kerak.

Iqtisodiyotning bu sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va yaqin yillar ichida uning eng muhim sohasiga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va ichki turizmni yanada rivojlantirish, sayyohlik xizmatlarini yaxshilash va turlarini kengaytirish zarurligi"... "O'zbekistonga kelayotgan har bir sayyoh bu investitsiyadir"², deb ta'kidlanishi bevosita turizmning iqtisodiyot rivojiga ta'sirini oshirish va unga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish masalasiga bevosita taalluqlidir.

2. Adabiyotlar sharhi.

Jahon xo'jaligining globallasuvi va integratsiyalashuvi kuchayib borayotgan bir davrda turizm tushunchasining mohiyatini to'g'ri talqin etish va uning mohiyatini to'g'ri anglab etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu haqda xorijiy va mahalliy olimlarning fikri turli-tuman bo'lib, turlicha qarash va kontseptsiyalar mavjud. Jumladan, A.Yu.Aleksandrova "Kishilarning doimiy turar joylari va ishlaridan farqlanuvchi joylarga etib kelishi va joylashishi vaqtida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalar yigindisi turizmdir"³, deb ta'kidlab o'tgan bo'lsa, Yu.V.Tishukov esa "Turizm – mamlakat fuqarolari, xorijlik fuqarolar va fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslarning doimiy turar-joylaridan sog'lomlashtirish, tanishish, kasbiy ishbilarmonlik, sport, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha yashab turgan mamlakatidagi haq to'lanadigan faoliyat bilan band bo'lmagan holda vaqtinchalik sayohatlaridir"⁴, degan fikrni bildiradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ayrim xorijiy va mahalliy olimlar turizmning jadal

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2020-yilning 22-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi - <https://daryo.uz/k/2018/02/23/shavkat-mirziyoyev-har-bir-turist-investitsiya-video/>.

³ Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С. 12.

⁴ Тишуков Ю.В. Потребитель на рынке туристических услуг. Практическое пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007. – С. 4.

taraqqiyoti alohida tarmoq holdagi industriyadir, ya'ni turizm industriya sifatida ham tan olinmoqda.

M.B.Birjakov esa "Turistik xizmat – turizm maqsadlari, turistik xizmatning yo'nalishi va tabiati, turistik mahsulotga javob beruvchi, umuminsoniy axloq va tartib tamoyillariga mos keluvchi ekskursant yoki turistning ehtiyojlarini ta'minlash va qanoatlantirishga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi maqsadlarga yo'naltirilgan harakatlar yig'indisidir"⁵, degan fikrni bildiradi. Iqtisodchi-olimlardan M.T.Alievaning fikricha "turizm – bu kishilarning doimiy yoki uzoq muddatli turarjoyi hisoblanmaydigan va ularning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan joylarga safariga taalluqli munosabatlar, aloqa va hodisalar yig'indisi hisoblanadi"⁶.

Yu.Kujel turizm sohasini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini ochib bergan. Bunda mamlakatning eng tez rivojlanadigan sohasi sifatida turizmga alohida e'tibor qaratish zarurligini keltirib o'tadi⁷.

N.Mopozova va M.Mopozovning fikriga ko'ra, zamonaviy turizm industriyasi yangi kompyutep texnologiyalarni jopiy etilishi bilan ulkan o'zgarishlarga ega bo'ldi. Har qanday tashkilotni turistik biznes bozorida zamonaviy axbopotlap texnologiyasidan foydalanilmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi amaliyotda mumkin emas⁸.

N. Xaydarovning fikriga ko'ra, turizmni rivojlantirish mexanizmlarining o'ziga hos ko'rinishi sifatida mamlakatda ta'lim sohasiga Xorijlik talabalarni qabul qilishni keskin ko'raytirish kepak. Ularni kamida to'rt yil o'qish davrida turistlar kabi hayot kechiradi. Ularni o'qish davrida ota-onalari va yaqin do'stlari ko'rib ketish uchun kelib-ketish imkoniyati juda katta. Bu esa o'zi o'zidan turistik oqimni olib bopishiga sabab bo'ladi⁹.

M.Q.Pardaev "rekreatsion tarmoq"ni dam oluvchining sarflagan jismoniy, aqliy va ma'naviy kuchini hamda salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatishga mo'ljallangan korxonalar, tashkilot va muassasalar (dam olish zonalar, rekreatsion parklar, tibbiy muassasalar, turistik firmalar, sun'iy suv havzalari, ovchilar, baliqchilar uylari, sanatoriya va kurortlar kabi) majmui¹⁰, deb hisoblaydi. "Rekreatsion tizim" esa rekreatsion faoliyatni amalga oshirishda qo'llaniladigan barcha sub'ektlar (sog'lomlashtirish, davolanish, dam olish muassasalari, turizm va u bilan bog'liq sub'ektlar, turizmga xizmat qiluvchi infratuzilma kabilar) majmui tushuniladi. "Rekreatsion xizmat" sifatida dam oluvchining sarflagan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuchini, salomatligi va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan turli rekreatsion xizmatlarni ko'rsatish jarayoni, deb hisoblaydi¹¹.

⁵ Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: НП «Издательство «Невский Фонд», 2014. – С. 108.

⁶ Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. Monografiya. – T.: "Fan", 2013. – B. 14. (- 240 b.)

⁷ Кужел Ю. Л. Туризм и гостеприимство. Учебник: - М. : Издательство Юрайт, 2018. - 439 с.

⁸ Морозова Н., Морозов М., Информационное обеспечение туризма. Учебник. Москва, КноРус, 2016, 7 с

⁹ Н.Хайдаров. Туризмни ривожлантиришда хорижий давлатлар тажрибаси. Очиқ иқтисодиёт: соғлом рақобат, бизнес муҳити инвестицион муҳит жозибадорлиги / Халқаро амалий анжуман / ТДИУ.

¹⁰ Pardaev M.Q., Islomova R.A., Gapparov A.Q. Rekreatsion zonalar va ekologik turizm ta'riflarini ishlab chiqishda nazariy va uslubiy yondoshuvlar. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi materiallari (2014. 21-22-fevral) Samarqand, 2014. – B. 78-84.

¹¹ Pardaev M.Q., Islomova R.A., Gapparov A.Q. Rekreatsion zonalar va ekologik turizm ta'riflarini ishlab chiqishda nazariy va uslubiy yondoshuvlar. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi materiallari (2014. 21-22-fevral) Samarqand, 2014. – B. 78-84.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turizm sanoati jahon iqtisodiyotining rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Dunyoning ko'rgina mamlakatlari davlat boyligining salmoqli qismini turizm faoliyatini tashkil etishdan olingan daromadlar hisobiga qupgan.


Panedmiya ta'siri ostida ahamiyati nisbatan kamayib ketgan turizm Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan pandemiyadan so'ng xalqaro turizm tiklanishi yuzasidan ishlab chiqilgan ssenariyga ko'ra 2024 yil yakunlariga bopib qayta tiklanadi (1-pasm).

Aytish mumkinki, noishlab chiqarish sektorining bir qismi sifatida turizm jahonning etakchi ekspopt sanoatiga aylanish istiqboliga ega. Shu va shu kabi tendensiyalar iqtisodiy o'sish, aholining madaniy va moddiy darajasining oshishi, tpanspoptning yaxshilanishi, bo'sh vaqtning ko'rayishi bilan bog'liq.

Respublika hududlari va aynan turistik tashkilotlarga sapmoya jalb etish vazifasi ustuvop maqsad sifatida olinganda masalaga uzoq muddatli strategik peja asosida yondashish to'g'ri deb hisoblaymiz.

“Hozirgi davrda turizm jaxon iqtisodiyoti rivojlanishi, mintaqalar hamda mamlakatlar siyosatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib bopmoqda”¹².

Respublikamizda ham “turizmni milliy iqtisodiyotni divepsifikasiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tapmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda”¹³.



1-pasm. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan pandemiyadan


¹² Фуломова Г.П. Туризм кластерларининг институционал мухити. Иктисод ва молия. 2019, 11 (131)

¹³ Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития: теория и практика. - Т.: Институт экономики АН РУз, 2005. -С. 36.

so'ng xalqaro turizm tiklanishi yuzasidan ishlab chiqilgan ssenariy¹⁴

Fikrimizcha mamlakatimiz turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega, shu bilan birga uni hududiy tashkil etishning yangi shakllarini rivojlantirish yo'li bilan raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston juda katta turizm va rekpeasiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros ob'ektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar – “Xiva shahridagi Ichan-qal'a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi po'yxatiga kiritilgan¹⁵.



2-rasm. 2018-2022-yillarda tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar soni¹⁶

Yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, pandemiyadan so'ng, O'zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlarning yillik o'rtacha o'sishi 20 foizdan ortmoqda.

2023 yilning yanvar-noyabr oylarida mamlakatga 6 mln 134 ming nafar xorij fuqarolari tashrif buyurdi. Yil yakuniga qadar, bu ko'rsatkich 7 mln nafarga yetishi prognoz qilinmoqda. Mavjud raqamlarni 2022 yilning 11 oyidagi natijalar bilan solishtirganda, shu yilda ayrim davlatlardan bir necha karraga turistlar soni ko'payganini ko'rish mumkin¹⁷.

Bu ko'rsatkich davlatlar kesimida qaralganda bir nafar Uzoq sharq va Yevropa davlatlaridan kelgan sayyoh 1 ming 66 dollar (2021 yilda 709 dollar), MDH davlatlari esa 743 dollar (2021 yilda 635 dollar) qo'shni davlatlardan tashrif buyurganlar 154 dollardan 257 dollargacha mamlakatda mablag' qoldirmoqda.

2023 yilda “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!” dasturi doirasida mamlakat bo'ylab 20 mln nafar mahalliy sayyohlar tashrifi prognoz qilingan edi. Bu ko'rsatkich, 11 oy davomida 20,6 mln.ga yetdi.

Shu yilda, bevosita Qo'mita ko'magida hududlarda 1000 nafardan ortiq imkoniyati cheklangan bo'lgan shaxslar va 570 ming yoshlar sayohatlari tashkil etildi.

¹⁴ World tourism organization (UNWTO) source, December 2020, <https://www.unwto.org/>

¹⁵ Фуломов Г.П. Туристический кластерлар: шакллантириш жараёнлари ва ривожланишини бағолаш усуллари. Иқтисодийда инновациялар журнали. № 7 (2019)

¹⁶ <https://uzbektourism.uz/research/statistics>

¹⁷ <https://uzbektourism.uz/news/view?id=3030>

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar tillarida yuritiluvchi 7 tilda "Tabarruk ziyorat" platformasi ishga tushirildi va dastlabki bosqichda mamlakatdagi 100 ta ziyorat ob'ekti platformaga kiritildi.

2023-yilning dastlabki 11 oyida hududlarda 183 ta yangi mehmonxona (o'rinlar soni 11 342 ta) va 207 ta xostel (o'rinlar soni 7 237 ta) yangidan ishga tushdi. Jami joylashtirish vositalari soni 5 365 ta, ulardagi o'rinlar soni 142 038 taga yetkazildi.

Xonadonlarda 333 ta oilaviy mehmon uyi (o'rinlar soni 3 092 ta) tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3 305 ta (o'rinlar soni 29 300 ta) ga yetdi.

Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilotlar va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ularning soni 2 649 taga yetkazildi.

2023 yilning 1 noyabr holatiga umumiy qiymati 8,1 trln. so'mlik 448 ta investitsiya loyihalari amalga oshirildi (8 191 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan). Yil yakuniga qadar 1,4 trln. so'mlik 60 ta loyiha ishga tushadi.

Yil boshidan turizm va unga yondosh sohalarda 70 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'zbekiston turizm salohiyatini Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo Tinch okeani, Yaqin Sharq, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqalarida keng targ'ib qilish maqsadida "BBC WORLD NEWS" (umumiy auditoriyasi 600 mln.), "SNN" (umumiy auditoriyasi 1 mlrd.) va "EURONEWS" (umumiy auditoriyasi 800 mln.) xalqaro mediakorporatsiyalari, shuningdek, "Ctrip.com" onlayn sayohat platformasi (umumiy auditoriyasi 500 mln.) va "Visa Facilitation Services Global" (umumiy auditoriyasi 100 mln.) tashkilotlari bilan shartnomalar asosida xalqaro miqyosda mamlakatimiz imidji ilgari surildi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida "Hyatt Regency Tashkent", "Tashkent city park" brendli mehmonxona, dam olish tantanalar majmuasini ochilishi, Samarqand shahrida "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazi, Bo'stonliq tumanida Amirsoy tog'-chang'i kurortining 2 bosqichli qurilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, "Angpen-Pop" temp yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishi, loyukosterlar jalb qilinishini aytib o'tish joiz. Birgina 2022 yilda "davlat-xususiy sheriklik" tamoyili asosida barpo etilgan Samarqand xalqaro turizm markazi Samarqand tumanidagi eshkak eshish kanali bo'yida, 212 gektar maydonda qurilgan bo'lib, bu yerda 10 ta zamonaviy echimdagi inshoot, jumladan, kongress xoll, mehmonxonalar, dam olish maskanlari, "Abadiy shahar" karvon saroyi va 8 ta mehmonxona bunyod etilgan.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolida hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni echish, ish o'rinlarini ko'raytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan 2019-2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida jozibador va raqobatbardosh turistik maxsulotlar, shu jumladan, mamlakat hududlarida tematik turistik zonalar va klasterlarni yaratish

vazifasi qo'yilgan¹⁸ (1-jadval).

1-jadval

2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi maqsadli ko'rsatkichlari¹⁹

Ko'rsatkichlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekistonga tashpif buyupadigan Xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5346	6041	7010	8410	10010	10600	11250	11810
Turizm xizmatlari ekspopti (mln AQSH dollari)	1041	1180	1360	1620	1900	2000	2080	2170
Ichki turistlar soni (mingta tashpif)	15493	16100	17230	18806	20317	21867	23404	25010
Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1100	1620	2200	2600	2800	2900	3050
Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
Turoperatorlar soni (nafar)	983	1100	1190	1250	1320	1390	1420	1450

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi eng avvalo, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvop maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga turizmni yanada rivojlantirish, pandemiyadan keyingi davrda uni qayta tiklash masalasi bugungi kunda kun taptibidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

Yuqoridagi konsepsiyadagi maqsadli ko'rsatkichlarga epishishda davlat yoki markazlashgan jamg'apmalar kafolatlash mexanizmi asosida maxsus obligasiyalarni joylashtirish opqali turizmga strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun moliyaviy pesupslarni jalb etish o'zining ijobiy samarasini beradi.

O'zbekistonda umumjahon ahamiyatiga molik noyob tarixiy-madaniy yodgorliklar juda ko'p. Ular turli mamlakatlardan diyorimizga keladigan sayyohlarda katta qiziqish uyg'otishi tabiiy. Biroq, yashirishning hojati yo'q, yurtimizda tarixiy-madaniy turizm ancha zaif rivojlanmoqda. Holbuki, bunday imkoniyatlarga ega talay davlatlarda turizm mamlakat YaIMning katta qismini tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, turistlarning yangi yo'nalishdagi sayyohlikka qiziqishi har doim yuqori bo'lgan. Bu umuman turizmga xos xususiyatdir. Shu bois, masalan, o'ta kuchli raqobat mavjud jahon bozoriga chiqish uchun uzoq vaqt ish olib borish va katta miqdordagi investitsiyalarni jalb etish zarur bo'ladigan sanoat mahsulotlari yoki qishloq xo'jaligi bozorlaridan farqli o'laroq, turistik bozor ancha ochiqroq va unga etishish osonroq.

Bundan tashqari, turistik mahsulot sayyohlarga ham bevosita, ham bilvosita turli xizmatlar ko'rsatuvchi umumiy ovqatlanish shohobchalari, mehmonxonalar, madaniy va

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5b11-son farmoni. <http://lex.uz/docs/4143188>

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5b11-son farmoni. <http://lex.uz/docs/4143188>

dam olish muassasalari, tarjima, viza markazlari, transport korxonalari va ko'plab boshqa tashkilot-idoralarning hamkorlikdagi faoliyati mahsulidir.

“Turistik faoliyatning boshqa xususiyati ko'rsatilayotgan xizmatlarning iste'molchi (turist)lar tomonidan qabul qilinishidagi sub'ektivizm hisoblanadi”²⁰. Bunda alohida omillar emas, turistik aloqalar majmuidan kelib chiqadigan umumiy tasavvurlar muhim o'rin tutadi. Ko'plab har xil iqtisodiy sub'ektlarning muvofiqligi va o'zaro hamkorligi murakkab vazifadir. U faqat davlat ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Muvofiqlik mexanizmini yaratishda barcha ishtirokchilar manfaatlari, ularni rivojlantirishning muvozanatlashgani va barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda jamiyatning umumiy manfaatlari ham hisobga olinishi shart. Turizmni rivojlantirishning hozirgi mavjud mexanizmi esa bu xususiyatlarni o'zida to'liq aks ettirmaydi. Binobarin, mazkur sohaning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va sohaga investitsiyalarni jalb qilish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. “Buni rivojlantirishning asosiy elementlari uni amalga oshirish printsiplari, metodlari, vositalari va shakllaridan iboratdir”²¹.

Shu bilan birga sohani rivojlantirish, turistlar oqimini ko'paytirish, xizmatlarni takomillashtirish, daromadni ko'paytirish, ularga qulay sharoitlar yaratish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirishni talab qilinadi.

1. Samarqand viloyatida 200 km dan ziyod yo'llar ta'mirlash talab qilinadi. Bu esa turistlar talab darajasida dam olishga to'sqinlik qiladi.

2. Qadimiy obidalar atrofini obodonlashtirish, gulzorlar ekish, savdo va ovqatlantirish shahobchalari tashkil qilish talab qilinadi.

3. Toshkent – Samarqand yo'nalishi bo'yicha yo'l chetlarida turistlar vaqtincha dam olish uchun kempinglar qurish maqsadga muvofiq.

4. Hozirda viloyatda 22 ta bolalar oromgohi mavjud. Bu oromgohlarni chet va mahalliy investorlarga faoliyatni o'zgartirmaslik sharti bilan sotish kerak.

5. Viloyatda ko'plab tog'li hududlar mavjud. Bu hududlarda turistlar ko'ngilli dam olishi uchun uy mehmonxonalari tashkil qilish maqsadga muvofiq.

6. Turistlarga xizmat qiluvchi gidlar, turoperatorlar, tarjimonlar, mutaxassislar malakasini oshirilishi lozim deb hisoblaymiz.

O'zbekistonga kelib, investitsiya kiritish, uning rivojiga hissa qo'shish istagidagi ishbilarmonlar talaygina, biroq bu yo'lda bir muammo bor – O'zbekiston o'zining havo yo'llari tizimini ochishi kerak. Masalan, Turkiyaga dunyoning turli burchaklaridan parvozlarga amalga oshiriladi, xohlagan odam xohlagan shahriga kelib ketaveradi. O'zbekiston esa bu borada ancha rivojlanishi lozim – bu erga barcha respublikalardan samolyotlar parvoz qilishi muhim. Shunda o'z-o'zidan O'zbekistonga sarmoya olib kiruvchi investorlar soni ko'payadi, tabiiyki turizm shiddat bilan rivojlanadi.

5. Xulosa va takliflar.

Turizmning iqtisodiyot rivojiga ta'sirini oshirish va unga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga doir olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasi quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

²⁰ Захаренко Г.Н. Ресурсный потенциал региональной дестинации и эффективность его использования в индустрии туризма: на примере Пермского края. Автореф. дис. ... канд. эконом. наук. – СПб.: ЦНИТ «АСТЕРОН», 2011. – С. 22.

²¹ Ruziev Sh.R. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ilmiy-metodik asoslari. “Biznes-ekspert”, 30.11.2018. №11(131), 2018. – B. 12-13.

Turizm iqtisodiy taraqqiyotning muhim manbai hisoblanib, YaIMni shakllantirish, bandlikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Shuning uchun turizm salohiyatini oshirish, sohani jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha yagona davlat siyosati yuritilishiga yo'naltirilgan yaxlit kontsepsiyaning izchil amalga oshirilishini ta'minlash lozim. Bejizga jannatmakon yurtimizni ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mintaqa deyishmaydi. Buyuk tarixi, shonli o'tmishi bilan butun dunyo ahlini o'ziga ohanrabodek jalb etayotgan mamlakatimizning ijtimoiy va tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish turizmni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, inshootlar qurilishi, ziyoratgohlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, transport va kommunikatsiya tizimlari faoliyatini yo'lga qo'yish respublikamizda jahon standartlari darajasidagi turizmni rivojlantirishga imkon beradi. Bu esa investitsiyalar bilan bevosita bog'liqdir.

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish shakllari davlat tomonidan investitsiyalash, fuqarolar, nodavlat tashkilotlar, turistik firmalar, jamoat tashkilotlari, aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa yuridik shaxslar tomonidan investitsiyalash, xorijiy hamkorlar tomonidan investitsiyalash, qo'shma (hamkorlikda) investitsiyalash hamda moliyaviy vositachilar yordamida investitsiyalash kabilardan iborat.

6. Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2020-yilning 22-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi - <https://daryo.uz/k/2018/02/23/shavkat-mirziyoyev-har-bir-turist-investitsiya-video/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5b11-son farmoni. <http://lex.uz/docs/4143188>
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С. 12.
4. Тишуков Ю.В. Потребитель на рынке туристических услуг. Практическое пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007. – С. 4.
5. Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: НП «Издательство «Невский Фонд», 2014. – С. 108.
6. Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. Monografiya. – T.: "Fan", 2013. – B. 14. (- 240 b.)
7. Кужел Ю. Л. Туризм и гостеприимство. Учебник:- М. : Издательство Юрайт, 2018. - 439 с.
8. Морозова Н., Морозов М., Информационное обеспечение туризма. Учебник. Москва, КноРус, 2016, 7 с
9. Н.Хайдаров. Туризмни ривожлантиришда хорижий давлатлар тажрибаси. Очиқ иқтисодиёт: соғлом рақобат, бизнес муҳити инвестицион муҳит жозибadorлиги / Халқаро амалий анжуман / ТДИУ.
10. Pardaev M.Q., Islomova R.A., Gapparov A.Q. Rekreatsion zonalar va ekologik turizm ta'riflarini ishlab chiqishda nazariy va uslubiy yondoshuvlar. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi materiallari (2014. 21-22-fevral) Samarqand, 2014. – B. 78-84.

11. Фуломова Г.П. Туризм кластерларининг институционал мухити. Иқтисод ва молия. 2019, 11 (131)
12. Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д. Кластерная концепция экономического развития: теория и практика. - Т.: Институт экономики АН РУз, 2005. -С. 36.
13. World tourism organization (UNWTO) source, December 2020, <https://www.unwto.org/> ma'lumotlari
14. G'ulomova G.P. Turistik klasterlar: shakllantirish japyonlari va rivojlanishini baholash usullari. Iqtisodiyotda innovasiyalar jurnali. № 7 (2019)
15. O'zbekiston Respublikasi Turizm vazirligining ma'lumotlari <https://uzbektourism.uz/news/view?id=3030>
16. Захаренко Г.Н. Ресурсный потенциал региональной дестинация и эффективность его использования в индустрии туризма: на примере Пермского края. Автореф. дис. ... канд. эконом. наук. – СПб.: ЦНИТ «АСТЕРОН», 2011. – С. 22.
17. Ruziev Sh. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ilmiy-metodik asoslari". "Biznes-ekspert", 30.11.2018. №11(131), 2018. – В. 12-13.
18. Raimjanova M., Popluga D. BIOECONOMY CONCEPT AND POSSIBILITIES OF ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN AGRICULTURE FOR MAKING IT MORE ATTRACTIVE FOR INVESTMENTS //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2023. – №. 57.
19. Asrarovna R. M. FINANCING THE GREEN ECONOMY IN DEVELOPING COUNTRIES: A FOCUS ON UZBEKISTAN //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 507-511.
20. Sangirova U. R. et al. Food logistics of dairy products in the food market of Uzbekistan //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 918. – №. 1. – С. 012139.
21. Asrarovna R. M. Agricultural investments as the main factor increasing the agricultural sector's competitiveness //ECONOMIC SCIENCE FOR RURAL DEVELOPMENT 2020. – 2020. – С. 118.
22. Fakhmuddin-kizi B. A. FOREIGN EXPERIENCE IN FINANCING INVESTMENT PROJECTS FROM DECENTRALIZED SOURCES //EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management (ECEM). – 2023. – Т. 10. – №. 11. – С. 8-11.
23. Botirxuja Aziza Fahmuddin kizi. (2023). ECONOMIC INDICATORS AND THEIR IMPACT ON STOCK PRICES. International Journal of Global Economic Light, 9(9). Retrieved from <https://eprajournals.net/index.php/JGEL/article/view/3172>
24. Botirxuja Aziza Fahmuddin qizi. (2023). FOND BOZORI ORQALI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH AMALIYOTI TAHLILI. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 39–46. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/552>
25. Zokirova Feruza Farhod qizi. (2023). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA

ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 47–54.
Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/553>

26. Raimjanova M. et al. The Consequences of the Pandemic on the Inflow of Foreign Investment Abroad and in the Republic of Uzbekistan //International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash”. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – С. 3117-3124.

27. Aliqulov M. Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини ривожлантиришда хориж тажрибаси (Россия Федерацияси мисолида) //Scienceweb academic papers collection. – 2020.

28. Alikulov Mekhmonali Salahiddin ugli. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS AND TRENDS OF FINANCING THE AGRICULTURAL NETWORK. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 55–61. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/554>

29. Aminova N. U. Q., Zukhurova M. S. Q., Tulagankhujaeva I. S. Q. INVESTMENT PROCESS AND INVESTMENT POLICY //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 219-225.

30. Kabilovna S. N. Features of investment risk analysis and assessment //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2021. – №. 55.